



XALQ DEPUTATLARI BUVAYDA TUMANI KENGASHINING QARORI

2023 - yil 11 - avgust

VI-59-70-11-154-K/23

Buvayda tuman hokimligi

Buvayda tuman mahalliy budgetining 2023-yil II-chorak daromadlar rejasidan ortirib bajarilgan qismi hisobidagi mablag`lardan foydalanish to`g`risida

O`zbekiston Respublikasi Budget Kodeksining 119-moddasiga hamda O`zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrda qabul qilingan “2023-yil uchun O`zbekiston Respublikasining Davlat budgeti to`g`risida”gi O`RQ-813-sonli Qonuniga muvofiq, Xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy budgetlarni boshqarishda erkinliklar berilib, soliqlar va yig`imlar bo`yicha stavkalarini belgilash, mahalliy budgeti xarajatlarini hududiy budget mablag`lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo`yicha vakolatlari kengaytirildi.

Buvayda tumani budgetining 2023-yil II-chorak daromadlar rejasidan orttirib bajarilgan qismi hisobidagi mablag`laridan foydalanish bo`yicha O`zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to`g`risida”gi Qonuning 6- va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari Buvayda tuman Kengashi

QAROR QILADI:

- 1.** O`zbekiston Respublikasi Budget Kodeksining 119-moddasiga hamda O`zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrda qabul qilingan “2023-yil uchun O`zbekiston Respublikasining Davlat budgeti to`g`risida”gi O`RQ-813-sonli Qonuniga muvofiq, Buvayda tumani mahalliy budgetning 2023-yil II-chorak daromadlar rejasidan ortirib bajarilgan qismi hisobidagi mablag`lari **133,1 mln.so`m**, miqdorida shakllanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.
- 2.** Buvayda tumani mahalliy budgetning 2023-yil II-chorak daromadlar rejasidan ortirib bajarilgan qismi hisobidagi mablag`larini birinchi navbatda Hukumat qaror va bayonlarida ko`zda tutilgan tadbirlarni moliyalashtirishga, muhim Davlat dasturlari ijrosini ta'minlashga, aholini turmush farovonligini oshirishga hamda favqulodda vaziyatlarda va kechiktirib bo`lmaydigan vazifalar ijrosini ta'minlashga yo`naltirish to`g`risidagi takliflari ma'qullansin.
- 3.** Buvayda tumani mahalliy budgetning 2023-yil II-chorak daromadlar rejasidan ortirib bajarilgan qismi hisobidagi mablag`lar belgilangan maqsadlar uchun yo`naltirilishi ta'minlansin. Bunda:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi "Budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ 5072-sonli qarorining 1-bandiga asosan fuqarolar ishtirokining tuman budgetlari qo'shimcha manbalarining kamida 30 foizini "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ga jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo'naltirish uchun;
 - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 07-iyundagi "Yoshlar muammolarini o'rghanish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 312-sonli qarorining 1-ilovasining 5-bandiga asosan "Yoshlar daftari"ga jamg'armasini kiritilgan yoshlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasini to'ldirish uchun shakllangan mablag'ning kamida 15 foizini yo'naltirish uchun;
 - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-martdagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5020-sonli qarorining 7-bandiga asosan «Ayollar daftari»ga kiritilgan xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasini to'ldirish uchun shakllangan mablag'ning kamida 15 foizini yo'naltirish uchun;
 - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda Hukumat qaror va farmonlarida belgilangan tadbirlar (boshqa xarajatlar) uchun yo'naltirilsin.
 - Buvayda tuman mahalliy byudjetining 2023 yil II -chorak daromadlar rejasini orttirib bajarilgan qismi hisobidan yo'naltiriladigan mablag'lar to'g'risida 1-ilovaga asosan tasdiqlansin;
 - O'zbekiston Respublikasi Markaziy Saylov kommisiyasining 14.07.2023-yildagi 1395/1-xatiga asosan Prezident Saylovi munosabati bilan saylovda munosib ishtirok etgan tuman hokimligining bir guruh xodimlari 2-ilovaga asosan rag'batlantirilsin;
- 4.** Tuman hokiminining birinchi o'rribbosari (D.Mirzaxalilov), tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi (A.Ergashev)lar tegishli ravishda budjet mablag'lari taqsimlovchilarining budjet mablag'laridan samarali foydalaniishi ustidan qat'iy nazoratni o'rnatish hamda erishilgan natijalar bo'yicha hisobotlarini Kengashga kiritib borilishini ta'minlasin.
- 5.** Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining "Mahalliy budjet, iqtisodiy isloxtlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari" bo'yicha doimiy komissiyasi raisi (X.Akbarov) zimmasiga yuklatilsin.

ILOVA: 1

Buvayda tuman mahalliy budjetining 2023-yil II-chorak daromadlar rejasini orttirib bajarilgan qismi hisobidagi mablag'larning yo'naltirilishi ko'zda tutilgan maqsadlar

T/r Mablag'larni ajratish yo'nalishlari	Mablag' miqdori (mln.so'm)
1 Yoshlar daftari jamg'armasiga (15 foiz)	20,0
2 Yoyollar daftari jamg'armasiga (15 foiz)	20,0

3	PQ-5072-ga asosan "Fuqarolar tashabbusi jamg`armasi (30 foiz)	40,0
4	Tuman xokimligi xodimlarnini mukofotlash uchun (ilovaga asosan)	28,2
5	O`zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda hukumat qaror va farmonlarida belgilangan tadbirlar uchun	24,9
Jami		133,1

Tuman hokimi



Odiljonovich I. B.

Xalq deputatlari Buvayda tuman Kengashining
2023-yil 11-avgustdagи
VI-59-70-11-154-K/23-son qaroriga
1-ilova

Ўзбекистон Республикаси Марказий Сайлов комиссиясининг 14.07.2023 й 1395/1 куниги хатига асосан Президент Сайлови муносабати билан сайловда муносиб иштирок этган туман ҳокимлиги ходимларни рағбатлантириш бўйича ЖАДВАЛ		
№	ФИО	Лавозими
1	Мирзахалилов Дилноджон	Туман ҳокимининг І ўринбосари
2	Тургунов Дilmуроджон	Туман ҳокимлиги ташкилий кадрлар гурӯҳи рахбари
3	Собиржонов Акматжон	Туман ҳокимининг ёрдамчиси
4	Хайдарова Даифафуз	ИКМ мутахассиси
5	Үқтамов Абдусалом	Туман ҳокимлиги етакчи мутахассис
6	Корабоев Вохиджон	Туман ҳокимлиги ҳўжалик ишлари мудири
7	Рахимзода Шерюд	Туман ҳокимлиги бош мутахассиси